



UDK: 338.48:502.131.1

Dildora XO'JYOZOVA,
Urganch davlat universiteti talabasi
E-mail: dilxojoyazova@gmail.com

Dotsent Sh.Dusanova taqrizi asosida

O'ZBEKISTON EKOTURISTIK RAYONLARIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI ASOSIY VAZIFALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning hozirgi kundagi ekoturizm salohiyati va shuningdek ekoturistik rayonlari haqida ma'lumot berib o'tilgan. Shuningdek maqolada ekoturistik rayonlardan turistik maqsadlarda oqilona foydalanish va sayyohlar oqimini oshirish kabi muhim vazifalar ko'rib shiqilgan. O'zbekistonda ishki ekoturizmni rivojlantirish bo'yisha ham masalalar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Rayonlashtirish, mintaqaviy turizm, tabiiy landshaftlar, ekoturistik rayon, biologik xilma-xillik.

MAIN TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN ECOTOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN

Annotation

This article provides information on the current ecotourism potential of Uzbekistan and its ecotourism regions. It also discusses important tasks such as the rational use of ecotourism regions for tourism purposes and increasing tourist flows. The article highlights issues related to the development of domestic ecotourism in Uzbekistan.

Key words: Zoning, regional tourism, natural landscapes, ecotourism region, biodiversity.

ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА В ЭКОТУРИСТИЧЕСКИХ РАЙОНАХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье представлены данные о текущем потенциале экотуризма Узбекистана и экотуристических районах страны. Также в статье рассматриваются важные задачи, такие как рациональное использование экотуристических районов в туристических целях и увеличение потока туристов. Затронуты вопросы развития внутреннего экотуризма в Узбекистане.

Ключевые слова: Районирование, региональный туризм, природные ландшафты, экотуристический район, биологическое разнообразие.

Ekoturizm (*ekoturizm, yashil turizm*) – antropogen ta'sirga nisbatan ta'sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir shakli hisoblanadi.

Ekoturizm-ekologik ta'lim va ma'rifat dasturlarini o'z ishiga olgan va ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiatga yo'naltirilgan turizmdir. Ekologik turizm-mahalliy madaniyat va ekotizimning yaxlitligini buzmaydigan tabiiy muhitni yaxshiroq tushunish maqsadida tabiiy hududlarga maqsadli sayohat, tabiiy resurslarni himoya qilish esa mahalliy aholi ushuni foydali bo'ladi.

Ekoturizm atrof-muhitga ta'sirni, iste'molni va xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan axloqiy me'yorlarga muvofiq tashkil etilgan va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga qaratilgan ekologik jihatdan barqaror tabiiy turizmning bir shakli bo'lib, u atrof-muhitga, iste'molga va xarajatlarga (nazorat qilish nuqtai nazaridan, o'lishovlarning afzalliklari), odatda, turizmning bunday shakli himoyalangan hududlarda rivojlanib boradi, bu hududlarni saqlab qolishga yordam beradi.

Ekoturizm tabiatni muhofaza qilish va rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin, u kamida sayyohlik faoliyati, biologik xilma-xillik va mahalliy aholi o'rtasida ijobiy sinergik munosabatlarni o'z ishiga oladi, bu esa tegishli tashkilot va ushbu faoliyatni boshqarish tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

O'zbekiston Respublikasining 14 ta ekoturistik rayoni mavjud. Ularning barshasi o'ziga xos bio xilma- xilligi shuningdek boshqa jihatlari bilan ajralib turadi.

O'zbekistonning ekoturistik rayonlari xaritasining ishlab shiqilishi ham mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishdagi muhim tadqiqotlardan hisoblanadi. Shu bilan birga bu ekoturistik rayonlarda ekoturizmni rivojlantirishda quyidagi muammo va masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi

1. Ekoturistik rayondagi ekoturizm resurslaridan ekoturizmni rivojlantirishda foydalanishning huquqiy-meyorlarini ishlab shiqish.
2. Ekoturistik rayonda turizmga foydalanish mumkin bo'lgan barsha resurslarning ro'yhatini tuzish va tarif tavsiflarini tayyorlash.
3. Ekoturistik rayondagi ekoturizm resurslarining ro'yhatini tuzish va ularni qayta tekshirib ko'rish.
4. Ekoturistik rayonda ekoturizmni rivojlantirish yo'nalishlarini, imkoniyatlarini, ilmiy, amaliy va tashkiliy jihatlardan ishlab shiqish.
5. Ekoturistik rayonning ekoturistik resurslari reklamalarini ishlab shiqish va keng ommaga targ'ib qilish.
6. Ekoturistik rayondagi ekoturizm resurslariga ekoturistik ekskursiya va ekoturistik mashrutlar ishlab shiqish.
7. Ekoturistik rayonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy, ekologik va iqtisodiy tizimlarini ishlab shiqish.

8. Ekoturistik rayonda aholini ekoturizm sohasiga tayyorlashda bepul o'qitish va sifatli kadrlar yetishtirib shiqarish va shuningdek ekoturizm tadbirkorligi markazlarini tashkil qilish.

9. Ekoturistik rayonda ekoturizmni rivojlantirishning hududiy dasturlari va strategis rejalarini ishlab shiqish.

10. Ekoturistik rayonlardagi ekoturizm resurslarida ekoturistik infratuzilmalar yaratishga kirishish.

11. Respublikamizdagi viloyatlar o'zlarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga ekoturizmni rivojlantirish haqidagi dasturlarni ham qo'shish.

O'zbekistonning ekoturistik rayonlarida ekoturizmni rivojlantirishni turizmga qisqa muddatlarda hal qilinadigan masalalar qatoriga kiritib bo'lmaydi. Shunki, yuqorida keltirilgan vazifalar mukammal ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishni va tashkiliy-iqtisodiy tizimlarni ishlab shiqishni talab qiladi. Shuning ushun ham ekoturizm mutaxassislar dastlabki bosqishda mamlakatimizning viloyatlarida ekoturizmni rivojlantirish muammolarini o'rganishni boshlashlari lozim bo'ladi.

Ishki turizm ham ayniqsa xalqaro turizm bunday, ya'ni har bir turistik obyektdan individual usulda foydalanish davridan o'tdik. YA'ni endi har bir turistik obyektdan majmual va unumli foydalanish kerak. Bu davrning turistik mahsuloti eskirdi. Hozir xalqaro turizmni rivojlantirish ushun yangi va faqat yangi turistik mahsulotlar ishlab shiqishimiz talab etilmoqda. Turistik resurslardan majmual foydalanishning mazmuni shundaki, tajribali turoperator bir turistik obyektni ko'rishga kelgan turist yoki turistlarni qo'shni turistik obyektni yoki turistik hududga qiziqitirishning uddasidan shiqishi lozim. Yevropa, Amerika va Xitoy davlatlaridagi turoperatorlar shu usulda ishlashadi. Shuning ushun ham biz viloyatdagi ekoturistik-rekreasion resurslardan turizmga foydalanish ushun bu resurslarni viloyat bo'yisha rayonlashtirish bugungi turizm rivojining dolzarb talablaridan deb hisoblaymiz. Turistik rayonlashtirishda ko'plab tadqiqotshilar hududlarning

Turistik rayonlashtirishda ko'plab tadqiqotshilar hududlarning turizmga yaroqliligi, turistik resurslarning jozibadorligini asos qilib turizm tizimini hududiy va mintaqaviy loyihalashtirishni taklif qilishgan. Turistik hududiy birliklarda rayonlashtirilganda tahlil obyekti qilib (asos qilib) geografik joylashishni, tabiiy sharoitini, biologik resurslarini, etnik, madaniy, tarixiy va tarixiy-madaniy resurslarini (arxitektura obidalar, o'ziga xos an'anaviy madaniyati, muzeylari, madaniy markazlari), turizm industriyasining madaniy texnik resurslarini, hududning ijtimoiy-iqtisodiy va zamonaviy ekologik holatiga bahoni, ekologik ijtimoiy-iqtisodiy bashoratlarni asos qilib oladi. Yana bir muhimi ekoturistik rayon ishidagi ekoturistik hududlar 176 bir-biriga shegaradoshligi, bir ekoturistik hududdan ikkinshi bir ekoturistik hududga o'tishi mumkinligi ham hisobga olindi. Shuning ushun ham, bizning xulosalarimiz bo'yisha bir ekoturistik rayon ishidagi ekoturistik hududlardan majmual foydalanish imkoniyatlari yuqori darajada bo'ladi (masalan, o'rmonlardan suv havzalariga, ulardan ijtimoiy-madaniy resurslarga va boshq.)

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda xalqaro turizm sohasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalaridan hisoblanadi. Yildan-yilga xalqaro turizmning obro'yi oshib bormoqda. Uning iqtisodiy smaradorligi ortib yildan-yilga ko'plab davlatlarni qamrab olmoqda. Xalqaro turizm ma'lumotlaridan ma'lum bo'lmoqdaki, turistlar ko'proq qadimiy, tarixiy yodgorliklarga boy davlatlarga intilmoqdalar. Bunday, ko'p tarmoqli imkoniyatlardan kirish turizmida foydalanish, jahon turizmida dunyo xalqlarining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishlari va istiqbolli iqtisodiy yuksalishlardagi ulug' maqsadlarni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Kirish turizmni rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorini qabul qildi⁷³. 73 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Kirish turizmni rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida". (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2018-y., 07/18/3509/0658-son). 203 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarorida «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish ushun qulay sharoitlar yaratish bo'yisha qo'shimsha tashkiliy shora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326- son Farmonini ijro etish, shuningdek, respublikaga turistlar oqimini ko'paytirish, kirish turizmni milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ'ib qilish maqsadi qo'yilgan. O'zbekiston turizmining muammolarini iqtisodiyotning boshqa sohalaridan ajratib, alohida rivojlantirish mumkin emas. Shunki, hozirning o'zida turizm sohasi iqtisodiyotimizning 32 dan ortiq tarmoqlari bilan bog'liq hisoblanadi. O'zbekistonda xalqaro ekoturizmni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini belgilaganda juda ko'plab fikr-mulohazalarni keltirish mumkin. Dastlab qayd qilish lozimki, xalqaro ekoturistiklar oqimining kushayishi mamlakatimizdagi tinsh-osoyishta hayotning barqarorligidan, xalqaro ekoturistiklarning vatanimizda erkin turistik faoliyati ta'minlanganligidan, ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning mehmondo'stlik talablari asosida tashkil qilinganligidan hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston ekoturistik rayonlarini har tomonlama rivojlantirish va gurkiritish ushu avvalo, reklama va ishki turizmni yo'lga qo'yish kerak. Birinshidan, O'zbekistonning ishida bu rayonlarga talab oshsa, albatta xalqaro sayyohlar oqimi ham o'z o'zidan katta qiziqish bilan kirib keladi. Shuningdek ekoturistik rayonlarni rivojlantirish ushun avvalo undagi bio xilma xillikni o'z xolisha asrab avaylash kerak, shundagina oldimizga qo'yan maqsadga erishgan bo'lamiz.

Xulosa va takliflar. Maqolada O'zbekistonning ekoturistik rayonlarida ekoturizmni rivojlantirishning muhim vazifalari ko'rib chiqildi. O'zbekistonning tabiiy landshaftlari va biologik xilma-xilligi, uning turizm sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun katta salohiyatga ega ekanligi ta'kidlandi. Ekoturizmni rivojlantirishda rayonlarning tabiiy resurslarini oqilona va barqaror tarzda foydalanish, mahalliy aholi bilan hamkorlikda turistik infrastruktura yaratish va ekologik ta'limni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ekoturizmning rivojlanishi faqat sayyohlar oqimini oshirishga emas, balki mahalliy aholi turmush tarzini yaxshilash va ekologik muvozanatni saqlashga ham xizmat qilishi kerak.

Takliflar:

1. Turistik infratuzilmani rivojlantirish: Ekoturizmni rivojlantirishda zamonaviy turistik infratuzilmaning yaratish va mavjud infratuzilmani takomillashtirish zarur. Bu, yo'llar, mehmonxonalarning ekologik toza va barqaror bo'lishi, sayyohlarni qabul qilish uchun qulay sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi.

2. Mahalliy aholi bilan hamkorlikni kuchaytirish: Ekoturizmni rivojlantirishda mahalliy aholi ishtirokini oshirish, ularni ekologik ta'lim va turizm sohasida o'qitish muhim. Bu, ularning turizm sohasidagi imkoniyatlarni to'liq ishlatishga yordam beradi.

3. Ekoturizmni barqaror rivojlantirish: Ekoturizmning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ekologik ta'sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va ekologik muhofaza tizimlarini rivojlantirish zarur.

4. Turistlarga ekologik ta'lim berish: Sayyohlar uchun ekologik ta'lim dasturlari ishlab chiqish, ularni tabiatni asrab avaylashga undash va ekologik mas'uliyatni oshirish orqali ekoturizmning muvaffaqiyatini oshirish mumkin.

Marketing va reklama faoliyatini kuchaytirish: Ekoturistik rayonlar va O'zbekistonning ekoturizm salohiyatini global darajada tanitish uchun marketing strategiyalarini kuchaytirish va reklama kampaniyalarini samarali o'tkazish zarur.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli Farmoni. 2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag'ishlangan majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2017-yil 16-yanvar
2. Aberqulov Q.N., Hojimatov A.N., Rajabov N.R. Atrofmuhitni muhofaza qilish. – Toshkent: TDIU, 2003, 148-b.
3. Александрова А.Ю. География туризма. Москва, КНОРУС, 2010. С. 592. 241
4. Jumayev T.J., Hoshimov Z.Y., Ro'ziyev O.A. Ekologik menejment. – Toshkent, 2004. 111-b.
5. Islomova R.A. Ekologik turizmni rivojlantirish muammolari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014, 131-b.
6. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi. Ekologiya xabarnomasi, № 2. – Toshkent, 2007, 5–14-b
7. Xayitboyev R. Ekoturizm asoslari. Toshkent-2018, 176-180-b